

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

6-2023

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

A.A.Каримов

Философия калама –рациональная основа средневекового исламского
мировоззрения..... 203

D.E.Normatova

Islom islohhiligi (modernizm): diniy-falsafiy va siyosiy jihatlar..... 210

B.E.Xusanov

Estetik tarbiya mohiyatining falsafiy tahlili..... 215

N.M.Axmadiyev

Yoshlarning axloqiy, ma'rifiy, madaniy tafakkurini yuksaltirishda keksa avlod tajribasidan
foydanishning ahamiyati..... 220

N.N.Teshayev

Fuqarolik jamiyatni rivojlanishining ijtimoiy-madaniy omillari 223

K.G'.Kamolova

Ijtimoiy-gumanitar fanlar tizimida falsafaning o'rni 227

M.M.Qaxxorova, B.Farfiev

Oila instituti mustahkamligining ijtimoiy-madaniy asoslari..... 232

K.U.Sharipova

Jamiyatda gender tenglikning shakllanish jarayoni..... 240

S.A.Xayrullayev

Jamiyat barqarorligida konsolidatsiya jarayonining konseptual asoslari..... 244

O'.X.Rajabov

Maslahat – konsensusning sinergetik omili 248

Sh.T.Abbosova

Milliy g'oya –insoniyatni barqaror taraqqiyot sari yetaklovchi kuch 251

SIYOSAT**K.X.Avazov**

Siyosiy tadqiqotlar tizimida tahdid, tahdidbardosh jamiyat tushunchasining
mazmun-mohiyati..... 254

A.A.Abdilxamedov

Huquqbazarlik profilaktikasi tushunchasining mazmun-mohiyati va xususiyati..... 261

B.Y.Paluaniyazov

Markaziy Osiyo davlatlari xavfsizligiga ta'sir etuvchi tahidlarning namoyon bo'lish
xususiyatlari..... 265

U.M.Kuranov

Globallashuv sharoitida missionerlikka qarshi kurashning ma'nnaviy – ma'rifiy ahamiyati 270

ТАРИХ**Ma Jian, Vang Jianxin, M.Xasanov, Chen Aidong, Chjou Xinying, A.E.Berdimurodov,****K.D.Arziyev**

O'zbekistonning Samarcand vodiysi janubiy tomonidagi 2014-yilgi arxeologik dala qidiruv
ishlari hisoboti..... 275

М.Х.Исамиддинов

Оборонительные стены Афрасиаба и основные этапы его развития..... 309

X.Raxmatillayev

Turkistonda XIX asrning ikkinchi yarmidagi etnik jarayonlar 314

F.X.Utayeva, P.Q.Sharipova, F.G'.Rahmatova

Mustaqillik yillarida Buxoro to'qimachilik sanoatida modernizatsiyalashuv jarayonlari 318

N.S.Abdullayeva

Rossiya muzeylarida saqlanayotgan O'zbekiston madaniy merosi namunalari..... 324

S.B.Xakimova

"Xulosat ul-ahvol" asari xususida..... 329

Ш.Т.Темиров

Мухаммад Сиддик Хашмат, сын Эмира Музаффар (1864-1932) – жизнь и научное
наследие 332

YOSHLARNING AXLOQIY, MA'RIFIY, MADANIY TAFAKKURINI YUKSALTIRISHDA KEKSA AVLOD TAJRIBASIDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI

ЗНАЧИМОСТЬ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ОПЫТА СТАРШЕГО ПОКОЛЕНИЯ В ВОСПИТАНИИ НРАВСТВЕННОГО, ОБРАЗОВАТЕЛЬНОГО И КУЛЬТУРНОГО МЫШЛЕНИЯ МОЛОДЕЖИ

THE SIGNIFICANCE OF USING THE EXPERIENCE OF THE OLDER GENERATION IN RAISING THE MORAL, EDUCATIONAL AND CULTURAL THINKING OF THE YOUTH

¹Axmadiyev Nuriddin Muxutdinovich,

¹Farg'ona davlat universiteti falsafa kafedrasi katta o'qituvchisi, falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori
(PhD)

Annotatsiya

Bugungi kunda har bir jamiyatni keksa avlodning axloqiy vorisiylik tajribasini yosh avlodga yetkazish, mazkur jarayonni ijtimoiy-gumanitar fanlar doirasida tadqiq etish va uning amaliy natijalaridan oqilona foydalanish masalalari mazkur tadqiqot mavzusining dolzarbligini asoslaydi. Dunyo aholisining tarkibida, keksa avlod vakillarining soha va tarmoqlar rivojidagi ishtiroki kengayib borayotgani yaqqol sezilmogda. Ayniqsa, ularning ma'naviy-ma'rifiy, tarbiyaviy jarayondagi faolligi, jamiyatdagi yangilanishlar va o'zgarishlar davomida uchraydigan ijtimoiy muammolar yechimidagi muhim o'rni keksa avlod faoliyatining tadqiqot obyekti sifatida o'rganilishiga asos bo'lmoqda. Bu esa o'z navbatida keksa avlodning boy tajribasi, ilmiy salohiyatidan yoshlar axloqiy madaniyatini shakllantirishda samarali foydalanan mexanizmlarini takomillashtirish vazifasi metodologik yondashuvlarga asoslangan tadqiqotlarga bo'lgan zaruratni kuchaytirmoqda.

Аннотация

Сегодня вопросы передачи опыта нравственной преемственности старшего поколения молодому поколению в каждом обществе, исследования этого процесса в рамках социальных и гуманитарных наук, рационального использования его практических результатов обосновывают актуальность данной темы исследования. Очевидно, что в составе мирового населения расширяется участие представителей старшего поколения в развитии отраслей и отраслей. В частности, их активность в духовно-воспитательном, воспитательном процессе, их важная роль в решении социальных проблем, возникающих в ходе обновления и изменения общества, является основой изучения деятельности старшего поколения как объекта исследования. Это, в свою очередь, усиливает потребность в исследованиях, основанных на методических подходах, задаче совершенствования механизмов эффективного использования богатого опыта и научного потенциала старшего поколения в формировании нравственной культуры молодежи.

Abstract

Today, the issues of transferring the experience of the moral succession of the older generation to the younger generation in every society, researching this process within the framework of social and humanitarian sciences, and rationally using its practical results justify the relevance of this research topic. It is evident that the participation of the representatives of the older generation in the development of industries and sectors is expanding in the composition of the world population. In particular, their activity in the spiritual-educational, educational process, their important role in the solution of social problems encountered during the renewal and changes in society is the basis for studying the activity of the older generation as an object of research. This, in turn, strengthens the need for research based on methodological approaches, the task of improving the mechanisms of effective use of the rich experience and scientific potential of the older generation in the formation of the moral culture of young people.

Kalit so'zlar: yoshlar va ma'naviyat, aqliy tafakkur, ma'rifikat, tarbiya, keksa avlod tajribasi, vorisiylik tamoyili, axloqiy madaniyat.

Ключевые слова: молодёжь и духовность, интеллектуальное мышление, просвещение, образование, опыт старшего поколения, принцип преемственности, нравственная культура.

Key words: youth and spirituality, intellectual thinking, enlightenment, education, experience of the older generation, the principle of succession, moral culture.

KIRISH

Ma'lumki, o'zbek xalqi boshqa xalqlardan farqli ravishda, hatto ateizm xuruji kuchaygan sharoitda ham o'zining ma'naviyatini, milliy urf-odat va qadriyatlarini saqlab qolishga muvaffaq bo'ldi. "Ma'rifikat va ma'naviy tafakkur insoniyat sivilizatsiyasini tashkil etuvchi eng muhim omil sifatida jamiyatdagi tub o'zgarishlarida o'z mazmun-mohiyatini saqlab qoladi. Ma'rifikat – insoniyatning xarakteri, ya'ni muomala madaniyatini, xarakter shakli-shamoyili asosida shakllanishidir" [1]. Bu esa ma'naviyat qayta tiklanishiga va jamiyatdagi milliy madaniyatning yanada yuqori bosqichga ko'tarilishiga xizmat qiladi. Anglash kerakki, bugungi taraqqiyot davrida yoshlarning ma'naviy-axloqiy madaniyatini yuksaltirish rivojlangan davlatning ustuvor vazifasi hisoblanadi, chunki hozirgi yoshlar yaqin kelajakda hokimiyatni boshqarishda ishtirok etadi va

FALSAFA

ularning kelajak istiqboli bunyodkori bo'lib shakllanib, muhim ahamiyatga molik qarorlar qabul qiladi. Qanday qarorlar qabul qilinishi ko'p jihatdan qadriyatlar mazmun-mohiyatini tushunish, anglab olishga bog'liq bo'ladi. Shuning uchun ham milliy madaniyat, milliy xususiyatlarini saqlab qolaolmagan xalqlar yo'qolib ketishga mahkum, tanazzulga uchraydi yoki boshqa sivilizatsiyalar girdobiga aralashib ketadi. Ingliz faylasufi A.J.Toynbi fikricha, «Ijtimoiy inqirozdan ijtimoiy taraqqiyotga diqqat bilan qarar ekanmiz, bu jarayon ham xuddi inqiroz singari siklli harakatga ega ekanini ko'ramiz. Yuzaga kelgan muammo-tahdidga muvaffaqiyatli yechim-javob topilganda rivojlanishga erishilgan va bu narsa ham o'z navbatida yana bir yangi muammo-tahdidni yuzaga keltirgan»[2].

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev ta'kidlaydiki, «Biz ma'naviyat va ma'rifat ishini vatanparvarlik ishi, vijdon ishi, deb bilamiz. Vijdoni, ma'naviyati bor inson Vatanni albatta yaxshi ko'radi. Vijdon, ma'naviyat degani – xalqqa, Vatanga chin yurakdan xizmat qilish deganidir. Vijdon – kishining kundalik faoliyati, xatti-harkati, fel atvori uchun oila, jamoat, jamiyat va Vatan oldida ma'naviy mas'uliyatni his etish Mana shunday qarash bugun xalqimiz, ayniqsa, yoshlarimiz tomonidan keng va qizg'in qo'llab-quvvatlanayotgani ma'naviy tarbiyaning naqadar dolzarb ahamiyatga ega ekanini ko'rsatadi»[3]. Ushbu maqsadni konseptual asosda tashkil etish uchun, hozirgi davrda mamlakatda yoshlarni ma'naviy-axloqiy tarbiyasi uchun samarali ishlar amalga oshirilmoqda.

Yoshlar ma'naviy-axloqiy madaniyatining nazariy metodologik, huquqiy, tashkiliy asoslari yaratilgan. Jumladan Yoshlar ishlari agentligi, O'zbekiston Yoshlar ittifoqi jamiyat ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy hayotida faol ishtirok etmoqda. O'zbekistonda yoshlar ittifoqini har tomonlama qo'llab-quvvatlash, uni mamlakatning siyosiy, iqtisodiy, ma'naviy-gumanitar rivojlanishining yetakchi kuchiga aylantirish zarurligining strategik yo'naliishlari belgilangan.

Yoshlar ma'naviy-axloqiy madaniyatini yuksaltirish vazifasiga jamoat tashkilotlari alohida e'tibor beradi. Jumladan, O'zbekiston yoshlar ittifoqi bilan birga bu jarayonda nodavlat-notijorat tashkilotlar faoliyati alohida e'tiborga molik.

Uzlusiz ta'lim tizimi tashkilotlari, ijodiy uyushmalar, nodavlat notijorat tashkilotlar yoshlarning ma'naviy-axloqiy kamolotini yuksaltirishga qaratilgan faoliyat yuritmoqda.

Mamlakatning ta'lim-tarbiya muassasalarida, jamoat tashkilotlarida, mahallalarda, nodavlat notijorat muassasalarida ma'naviy tarbiyaning dolzarb vazifalari targ'iboti tizimli tarzda amalga oshirilmoqda. Oilalarda yoshlarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashga alohida e'tibor beriladi. Ayniqsa, tarbiyaviy jarayonda avlodlar o'rtasidagi aloqalar tajribasidan samarali foydalanish, mamlakat milliy tarixining vatanparvarlik sahifalari haqidagi, keksa avlod vakillarining fikrlarini, sotsiologik so'rovlar o'tkazish xujjal filmlar yaratish muhim ahamiyatga ega.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Yoshlar ma'naviy-axloqiy tarbiyasidagi amaliy ishlarga diniy konfessiyalar, o'quv muassasalari, jamoat tashkilotlari va mahallalar, oilalar, keksa avlod imkoniyatlaridan foydalanishning muhim jihatlarini qo'llash lozim. Ta'kidlash joizki, O'zbekistonda yoshlarning axloqiy, vatanparvarlik tarbiyasi nafaqat tarbiyaviy dastur sifatida, shuningdek, davlat siyosati darajasida amalga oshirilmoqda. Shunga qaramasdan, yoshlar axloqiy tarbiyasida ayrim noqisliklar, qadriyatlarga bepisandlik holatlari, diniy va milliy an'analarga nisbatan beparvolik munosabatlari ko'zga tashlanmoqda. Bu jarayon esa ko'rinishlari quyidagilarda namoyon bo'lmogda:

- an'anaviy milliy qadriyatlarni, yoshlarda vatanparvarlik dunyoqarashi, ta'siri pasayishi va unutilib ketishi, qadrsizlanishi;
- jamoat tashkilotlari vakillari tomonidan tashkil etilayotgan madaniy-ma'rifiy, tarbiyaviy mazmundagi tadbirlarning ta'sirchan emasligi, yuqori saviyada tashkil etilmasligi, malakali mutaxasis sustligi, millatlararo do'stlik aloqalari va xalq tarixi, an'analarini chuqr o'rganish, ushbu jarayonni tizimli targ'ib qilish jarayonida yuzaki kamchiliklar mavjudligi;
- ommaviy axborot vositalarining shiddat bilan rivojlanayotgan, ma'naviy mazmundagiradio eshitirishlartelevedion ko'rsatuvlarning saviyasi pastligi «ommaviy madaniyat»ning, radikal mazmundagi diniy oqimlarning kirib kelishi;
- jamiyatning o'zaro begonalashuvi, ijtimoiy aloqalarning (do'stona, oilaviy, qo'ni-qo'shnichilik) uzilishi, individualizm, shaxsiyatparastlik, egoizmning o'sib borishi;

- diniy bag'rikenglik o'rnni ashadiy mutaassiblik bilan almashtirishga harakat qilish;
- yosh oilalar ajralishlarining son jihatdan oshib borayotgani natijasida oilada ma'nnaviy-axloqiy tarbiya asoslarining kuchsizlanishi;
- xorijiy tele-radio xabarlar hajmining oshib borayotgani, ma'nnaviy-axloqiy qadriyatlarni yemirib borayotgan kinofilmlar, ko'rsatuvlarning ham ko'paygani va hokazo.

Jamiyatda axborot bosimining ortishi sharoitida yoshlarni ma'nnaviy-axloqiy tarbiyalashda juda murakkab muammolar vujudga keldi, ularning yechimini topishga butun jamiyatning ma'nnaviy va intellektual salohiyatini safarbar etish zaruriyati vujudga keldi. Ma'nnaviylikni plyuralistik mazmuni sifatida tushunishning yoshlar ma'nnaviy-axloqiy tarbiyasida o'ziga xos o'rn bor. Ulardan birinchisi diniy qarashlar hisoblanadi. Islom dinida bu vazifani tasavvufning «vahdat ul-vujud» nazariyasi bajaradi. Chunki ma'nnaviylik insonga xos xususiyat bo'lib, inson o'zining ichki dunyosi mohiyati bilan ilohiylikka yaqin, ilohiylik bilan duch keladi va ilohiy manbadan tayanch oladi. Islomdag'i tasavvuf ta'limoti uni ma'nnaviy-axloqiy tarbiyani belgilovchi omil sifatida sharhlaydi. Dunyoviy tushunishda «ma'nnaviylik» ma'nnaviy madaniyatga, axloqiylikka, intellektuallikka, yaxshi xulq-atvorga bog'liq holda tushuniladi. Ammo totalitarizm hukmronligi davrida ma'nnaviyat mafkura bilan aynanlashtirildi. Ma'nnaviyat demokratik tamoyillar, ya'nii vijdon erkinligi, e'tiqod erkinligi, istagan dinga rioya qilish yoki qilmaslik erkinligi sharoitida fuqaroning ichki ruhiy olami bilan bog'lanib ketadi. Shuning uchun ham O'zbekistonda masjid, umuman, diniy muassasalar davlatdan ajratilgan ekan, uning o'rnni to'ldiradigan madaniy, ma'nnaviy-axloqiy qadriyatlar va madaniy-axloqiy tarbiyadagi o'rn haqida mushohada qilish maqsadga muvofiq.

Ma'nnaviy-axloqiy tarbiya komil inson tarbiyasi va uni kamolotga yetkazish vazifalari bilan ajralmas jarayondir. Aynan ana shu tarbiyaviy jarayonda ijtimoiy rivojlanish muammolari ham yuzaga chiqadi. Yoshlarning ma'nnaviy-axloqiy tarbiyasi vorisilik tamoyiliga asoslangan holda amalga oshiriladi. Shuning uchun ham mutafakkir, siyosatchi, buyuk davlat arbobi Amir Temur qayd etganki, «Har bir mamlakatning yaxshi kishilariga men ham yaxshilik qildim, nafsi yomonlar, buzuqlar va axloqsiz odamlarni mamlakatdan quvib chiqardim. Pastkash va razil odamlarga o'zlariga loyiq ishlar topshirdim hamda haddilaridan oshishlariga yo'l qo'ymadim»[4].

Globallashuvning chuqurlashuvi va axborot asri sharoitida inson jamiyatda sodir bo'layotgan ijtimoiy rivojlanishni, uning ijtimoiy-iqtisodiy negizlarini va boshqa ijtimoiy voqeahodisalarini puxta o'rgangan holda evolyutsion jarayonlarda sodir bo'ladigan «sabab-oqibat» tipidagi savollarga javob izlashi va topishi kerak bo'ladi. Yuqorida keltirilgan barcha mulohazalar ijtimoiy rivojlanishning ayrim xususiyatlarini yoritishga qaratildi. Bunday muammolar yechimida ijtimoiy hayotda faol ishtirok etayotgan keksalarning intellektual imkoniyatlari, yuksak axloqiy madaniyatidan samarali foydalanish yo'llarini topish lozim. Yoshlarning ma'nnaviy-axloqiy tarbiyasini amalga oshirishning yo'nalishlaridan biri yoshlarning ixtiyoriy-ko'ngilli harakati hisoblanadi[5]. Ijtimoiy muhit, ota-onalarning ko'magi, o'qituvchilar va boshqa oila-a'zolari yoshlarning salomatligi, farovonligi va ijobjiy rivojlanishiga ta'sir qilishi mumkin.

XULOSA

Xulosa qilib aytish mumkinki, yoshlarning ma'nnaviy-axloqiy tarbiyasi mamlakatda barpo etilayotgan fuqarolik jamiyatining eng muhim ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, madaniy-ma'rifiy vazifasi bilan bevosita bog'liq. Shu tufayli yosh avlodning bunyodkorlik harakatini qo'llab-quvvatlashda keksa avlod tajribasi va ma'rifiy, ma'nnaviy salohiyatidan keng foydalanish kelajak uchun mard va oljanob, shijoatli, bunyodkor yoshlarni tarbiyalash, shu bilan birga mamlakat kelajagini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Ma'nnaviyat asosiy tushunchalar izohli lug'ati. Qayta ishlangan nashri. Toshkent.:G'afur G'ulom nomidagi nashriyotmatbaa ijodiy uyi. – B 48. (An explanatory dictionary of the main concepts of spirituality. Revised edition. Tashkent.: Publishing house named after Gafur Ghulam. – P. 48)
2. A.Toynbi Svilizatsiyalar inqirozi//Jahon adabiyoti, 2014 yil, 10-son. – B 45. (A. Toynbee The crisis of civilizations // World literature, 2014, issue 10. – P. 45.)
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning Oliy Majlisiga Murojaatnomasi. 2019-yil 28-dekabr//Xalq so'zi, 2019- yil 29-dekabr. (Address of the President of the Republic of Uzbekistan Sh.M. Mirziyoyev to the Oliy Majlis. December 28, 2019 // People's word, December 29, 2019.)
4. Amir Temur. Temur tuzuklari. – Toshkent: G'afur G'ulom nashriyoti, 1996. – B. 24 (Amir Temur. Timur's rules. - Tashkent: Gafur Ghulam Publishing House, 1996. - P. 24)
5. Jolanda Sonnevelda,d, Jeremy Rijndersa , Judith Metza , Tine Van Regenmortelb,d , René Schalk. The contribution of professional youth work to the development of socially vulnerable youngsters: A multiple case study. Children and Youth Services Review 118(2020)105476.